



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

### **A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tashkiliy faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 2-martdagি PF-27-son farmoni hamda “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-son qarori ijrosini ta’minalash yuzasidan xalqaro baholash dasturlari bilan bog‘liq vazifalarini davom ettirish va rivojlantirish hamda A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tashkiliy faoliyatini takomillashtirish maqsadida, shuningdek Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri rahbarligida o‘tkazilgan 2023-yil 5-iyuldagи 5-sonli yig‘ilish bayoniga muvofiq **buyuraman:**

#### 1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-martdagи PF-27-son farmoni bilan tasdiqlangan “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi”ning 175-bandiga muvofiq 2023-yilda 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholovchi TIMSS 2023 xalqaro baholash dasturida, shuningdek, 176-bandiga muvofiq O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro PISA 2025 tadqiqot dasturida O‘zbekistonning ishtirokini ta’minalash vazifalari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi zimmasiga yuklatilganligi;

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan 2021-yil 21-iyunda imzolangan kelishuv hujjatiga muvofiq “O‘qitish va ta’lim olish xalqaro tadqiqoti (TALIS 2024)”da O‘zbekistonning ishtirok etishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekistonning PISA 2025, TIMSS 2023 hamda TALIS 2024 xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishini ta’minalash bilan bog‘liq vazifalar A.Avloniy

nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institutiga (keyingi o‘rinlarda – Milliy-tadqiqot instituti) yuklatilsin.

### **3. Quyidagilar:**

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti **nizomi** 1-ilovaga;

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti **tuzilmasi** 2-ilovaga;

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti **lavozimlar nomi va shtat birliklari soni** 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

### **4. Milliy-tadqiqot instituti rektori A.Ismailovga:**

bir hafta muddatda Milliy-tadqiqot instituti nizomini belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta’minlash;

bir oy meddatda Milliy-tadqiqot institutida tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, xodimlar sonini maqbulashtirish bo‘yicha tegishli vaziflarni amalga oshirish;

ish beruvchi va xodimlar o‘rtasida mehnat munosabatlarini amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilinishini ta’minlash, jumladan:

shtat birliklari qisqarayotgan xodimlar bilan mehnat munosabatlarini davom ettirish, boshqa ishga o‘tkazishni qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirish;

shtat birliklari qisqarayotgan xodimlarga amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida ogohlantirish xatlarini berish va o‘rnatilgan tartibda ijrosini ta’minlash;

shtat birliklari qisqarishi sababli mehnat shartnomasini bekor qilishda ishda qoldirish uchun mehnat qonunchiligiga muvofiq imtiyozli huquq beruvchi holatlarni inobatga olish;

mavjud shtatlarning qisqarishi natijasida bo‘shab qolayotgan xodimlarni ishga joylashtirish choralarini ko‘rish;

**bir hafta muddatda** o‘zlari qabul qilgan hujjatlarni mazkur buyruqqa muvofiqlashtirish vaziflari yuklatilsin.

**5. Moliya-iqtisod departamenti** (I.Siradjev) Milliy-tadqiqot instituti tomonidan Institutning shtatlar jadvaliga kiritilgan o‘zgartirishlarni belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish choralarini ko‘rsin.

### **6. Quyidagilar:**

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 6-martdagi “A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti Ilmiy kengashi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 44-son buyrug‘i;

Xalq ta'lifi vazirining 2022-yil 28-iyundagi 209-sod buyrug'inining  
2, 2.1 hamda 4-ilovalari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinosi U.Begimkulov  
zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**



**X. Umarova**

Toshkent sh.,  
2023-yil 29 - avgust,  
278-sod